



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 7-uy. Tel.: (998) 55-520-08-08, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz



12.02.2024-yil

02/10-443-son

**Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi tizimidagi oliy ta'lif
muassasalari rektorlariga
(ro'yxat bo'yicha)**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida" 2022-yil 15 iyundagi PQ-279-sonli qarori 7.v)-bandi va Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lif muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida nizomning 7-bandni hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 19-dekabrdagi 532-sonli buyrug'iiga muvofiq 2023/2024 o'quv yili bahorgi semestrida o'qishini ko'chirishga ruxsat etilgan talabalar ro'yxati yuborilmoqda.

Oliy ta'lif muassasasi rahbariyatidan o'qishi ko'chirilishi ijobiy hal etilgan talabalarga uch kun muddatda o'rnatilgan tartibda xabar berilishini ta'minlash so'raladi.

Ilovada qayd etilgan fuqarolarni oliy ta'lif muassasasiga qabul qilish yuqorida qayd etilgan qonunchilik hujjatlariga qat'iy amal qilingan holda, jumladan o'qishni ko'chirish uchun asos bo'luvchi hujjatlarning asl nusxalari sinchiklab tekshirilgandan so'ng quyidagilarni inobatga olgan holda amalga oshirilishini ta'minlashingiz so'raladi:

a) talabalar o'qishini bir oliy ta'lif muassasasidan boshqa oliy ta'lif muassasasiga ko'chirishga faqatgina quyidagi holatlarda ruxsat etiladi:

- talaba oila qurishi munosabati bilan turmush o'rtog'i doimiy yashaydigan hududdagi oliy ta'lif muassasasiga o'qishini ko'chirish uchun murojaat qilganda;

- davlat organlarining xodimlari ish joyi o'zgargan taqdirda uning turmush o'rtog'i yoki voyaga yetmagan farzandi o'qishini ko'chirish uchun murojaat qilganda, tegishli vazirlik (idora) rahbarining tavsiyasi asosida;

b) birinchi kursning birinchi semestriga birinchi semestr tugallanmagan holatda o'qishni ko'chirilishiga;

O'zbekiston va xorijiy oliy ta'lif muassasalarining o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinib qo'shma ta'lif dasturlari asosida tahsil olayotganlarning o'qishini ko'chirilishiga;

ma'lum muddat oldin oliy ta'lif muassasasida tahsil olgan, biroq hozirda talabalar safidan chetlashtirilganlarning o'qishini ko'chirilishiga;

maqsadli qabul qilinganlar boshqa ta'lif yo'nalishi yoki ta'lif shakliga, boshqa oliy ta'lif muassasasiga ko'chirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'qishi ko'chirilishiga ruxsat etilgan fuqarolarning o'qitish ta'lif shaklini belgilash o'rnatilgan tartiblarga asosan fuqarolarning arizalariga muvofiq amalgamoshiriladi.

Talabalar o'qishini ko'chirish to'g'risidagi taqdim etilgan hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishi va ularning qonuniyligi uchun javobgarlik oliy ta'lif muassasalariga yuklatilishini inobatga olib talabalar o'qishini ko'chirish jarayonida talablarga javob bermaydigan hujjatlar aniqlangan taqdirda oliy ta'lif muassasasi rektori (direktori) mazkur hujjatlarni tekshirish va buyruq rasmiylashtirmaslik huquqiga ega ekanligi eslatib o'tiladi.

Ilova: bet.

Vazirning birinchi

o'rindbosari

Komissiya raisi



K.Karimov